

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI MILLIY QADIRIYATLAR VA URF ODATLAR ASOSIDA TARBIYALASH YO'LLARI

*Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani
31-son DMTT direktor o'rinbosari
Xudayberdiyeva Zulfiya Xushbekovna*

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarmiz va urf-odatlarimizning tarkibiy qismlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib berildi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarimiz va milliy urf-odatlarimizni bolalarga o'rgatishda xalq pedagogikasining intensiv yo'llari haqida ham fikr mulohazalar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: Qadriyat, Milliy tiklanish, Milliy ong, Milliy g'urur, Navro'z, Mehrjon, Milliy tarbiya.

WAYS OF EDUCATING PRESCHOOL CHILDREN ON THE BASE OF NATIONAL VALUES AND TRADITIONAL CUSTOMS

Annotation

In this article, the components of our national values and traditions in raising children of preschool age were analyzed from a scientific and theoretical point of view. Also, opinions were raised about the intensive ways of folk pedagogy in teaching children our national values and national traditions in the education of children of preschool age.

Key words: Value, National revival, National consciousness, National pride, Nowruz, Mehrjan, National education.

Hech bir xalq o'zligini anglamasdan, milliy madaniyati, milliy qadriyatlarini asrab-avaylab saqlamasdan turib, boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmat bilan qaray olmaydi. Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga, milliy urf-odatlarga sodiqligidadir. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ijtimoiy hodisalarga munosabat xilma-xil tarzda namoyon bo'ladi. Xususan, mustaqilligimizning birinchi kunidan boshlab hayotimizning barcha jabhalarida "Qadriyatlar", "Milliy tiklanish", "Milliy ong", "Milliy g'urur" kabi atamalar tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. Bu bejiz emas, albatta. Zotan, Mustaqillik, ayni paytda, milliy tiklanish hamdir. Uni esa mazkur tushunchalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ammo shuni ta'kidlash joizki, qatag'onchilik siyosati va tuzumi davrida bu

atamalarni ishlatish u yoqda tursin, ularni hatto o‘zbekcha lug‘at boyligidan surib chiqarishga harakat qilingan edi. Bunga dalil sifatida 1959 yili Moskvada “Xorijiy va milliy lug‘atlar davlat nashriyoti” tomonidan chop etilgan 40 mingdan ortiq so‘zdan iborat “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”ga ham, 1988 yildagi O‘zSE Bosh tahririyati chop etgan 50 ming so‘zlik “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”ga hamma jabhalarda “Qadriyat”, “Milliy tiklanish”, “Milliy ong”, “Milliy g‘urur”, “Milliy urf-odat” tushunchalarini kiritilmaganligini aytib o‘tish mumkin. “Qadriyat” iborasi o‘z ma’nosida mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng keng qo‘llanila boshlandi. Sobiq Ittifoq davrida bu termin muomalada deyarli uchramas edi, uni o‘zbekcha lug‘at manbalaridan chiqarishga harakat qilingan edi. Shuningdek, ushbu terminlar 1981 yilda Moskvadagi “Russkiy yazik” nashriyoti tomonidan chop etilgan va 60 ming so‘zni qamrab olgan ikki jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham uchramaydi. Boshqa ruscha-o‘zbekcha lug‘atlarda ham “qadriyat” so‘zi qo‘llanilmagan. Jumladan, 1976 yilda “Fan” nashriyotida chop etilgan “Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug‘ati”da “sennost” so‘zining to‘rtta ma’nosi lug‘at maqolasi tarzida berilgani holda ularning birortasida “qadriyat” ma’nosi o‘z ifodasini topmagan. Istiqlool sharofati bilan milliy qadriyatlarni o‘rganishga, tadqiq etishga, ular to‘g‘risida mushohada yuritish va xolis fikr bildirishga sharoit yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov o‘zbekona milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni kelajak avlodga yetkazish xususida fikr bildirar ekan, “qadriyat” so‘zining ma’nosini ochib beradi: Tariximiz sinovlaridan o‘tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyotimiz talablariga to‘la javob beradigan, tarix yilnomalari o‘tgani sari qadri ortib boradigan g‘oya va tushunchalarni qadriyat deb bilamiz”.

Xalq milliy bayramlari — Navro‘z, Mehrjon, Ramazon va Qurbon hayitlari hamda ular bilan bog‘liq holda o‘tkaziladigan sumalak, lola sayli, qiz majlisi, qo‘shchi oshi marosimlari hamda boychechak qo‘shig‘i, ramazon qo‘shig‘i, yangi kelinni ko‘rish va uning qo‘lidan choy ichish kabi qator udumlarimiz maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni do‘stlik, birdamlik, inoqlik, mehr-oqibatga undaydi, balki mehnatsevarlik hamda ajdodlarimiz an’ana-udumlariga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ularning mehnatga, go‘zallikka bo‘lgan extiyoj va qiziqishlarini rag‘batlantiradi.

Inson yaralibdiki, uning hayoti ezgulik yoki yovuzlik yo‘lini tanlash va ikki yo‘lning borar yeri hamda ularning oqibati haqida tarbiyalanib ulg‘ayadi. Shu ma’noda insonni ezgulikka eltuvchi fazilat mehnatsevarlik bo‘lsa, yovuzlikka eltuvchi illat bu dangasalikdir.

Inson hayotida “tarbiya” tushinchasi benihoya katta o‘rin tutadi. Insonni shaxs bo‘lib shakllanishida mehnat tarbiyasini bog‘cha yoshidagi bolalarni milliy mentalitetiga singdirish globallashayotgan dunyoning o‘ta muhim kechiktirib bo‘lmas dolzarb vazifa bo‘lib turibdi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni milliy qadriyat va urf-odat asosida tarbiyasini shakllantirishda albatta uzoq tariximiz silsilalaridan beri

davom etib kelayotgan milliy marosimlarga murojaat qilmasdan ilojimiz yo‘q. Jumladan, bola tarbiyasida milliy qadriyatimiz va an‘analarimizdan “Beshik soldi” marosimi (*katta guruh qiz bola tarbiyalanuvchilari uchun*) maktabgacha yoshdagi qiz bolalarni oilaparvar qilib tarbiyalashda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Biz bilamizki, qiz bola ertaga bir oilaning bekasi bo‘ladi va uni bog‘cha yoshdagi davrdan boshlab xalqimizning milliy merosi bo‘lgan “Beshik soldi” marosimi orqali tarbiyalash lozimdir. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi qiz bolalar “Beshik soldi” syujetli-rolli o‘yin orqali bolalar tavallud topgan bosh farzand uchun bozordan borib beshik sotib olinishi, ikkinchi farzand opa-akasining beshigiga belanishi, beshik bola oyoqqa turguncha yotadigan joyi ekani, bolani beshikka belashning yo‘l-yo‘rig‘ini, bola bor joyda onalar alla aytishini, alla o‘z ohangi bilan go‘dakni xotirjam qilishi, orom olib uxlashiga imkon berishi haqida bilib oladilar.

Shuningdek, yana bir milliy qadriyatimiz bilan katta guruh qiz bolalari “Alla aytar buvingiz” marosimi orqali “alla”ni inson ichki kechinmalari bilan bolani tarbiyalashga qaratilgan milliy urf-odatimizning o‘ziga xos tomonlari haqida batafsil ma‘lumotga ega bo‘lib borishadi. Rivoyat qilishlaricha, qadim zamonda suluv kelinchak ilk bora farzandlik bo‘libdi-yu, uning yoqimli “ingasini” ham eshitib ulgurmay, bola nobud bo‘libdi. Dunyoga kelgan ikkinchi go‘dakning ham taqdiri ona uchun iztirob va alamdand boshqa biror taskin bermabdi. Vaqt o‘tib ayol uchunchi farzandini xavotir aralash quvonch bilan kuta boshlabdi, ammo o‘sha kutilgan vaqt kelgach, ayol ne ko‘z bilan ko‘rsinki, tug‘ilgan bola yana yig‘lamesh. Shunda ona qalbidagi alamlar jumbushga kelib, otilib chiqib, yeru ko‘kni larzaga solibdi. Ayol yig‘lamay dardlarini shikasta ovozda kuylay boshlabdi. Bu ovozdan tog‘u tosh mumdek eribdi. Go‘dak esa birdan yig‘lab yuborib, ona qalbini quvonchga to‘ldiribdi. Ana shu dardli qo‘shiq “alla” degan nom olib, u muqaddas hayot qo‘shig‘iga aylanibdi. Bunday rivoyatni keltirishimizdan asosiy maqsad, milliy urf-odatlarimizdan bo‘lgan, go‘daklarni komil inson bo‘lib yetishishlari uchun avvalo onaning ichki his tuyg‘ularini, bolalarga bo‘lgan mehr-muhabbatlarini “alla” orqali tarannum etishini ko‘ramiz va shu maqsadda “alla aytar buvingiz” marosimi haqida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash eng muhim vazifalarimizdan biridir. Yana bir muhim milliy qadriyatlarimizdan biri “Navro‘z” milliy bayramida bolalar uchun juda qiziqarli bo‘lgan milliy va xalq o‘yinlarining namoyish etilishidir. “Navro‘z” forscha so‘z bo‘lib, “Yangi kun” degan ma‘noni anglatadi. Sharq xalqlari tomonidan yilning 21-mart kuni–kecha va kunduz tenglashgan kun yangi yil, Navro‘z bayrami sifatida keng nishonlanadi. U dehqonlar uchun ekin-tekin ishlarini boshlanish pallasiga to‘g‘ri keladi. Bu borada buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy bu kunni shunday ta‘riflaydi:

Vasli aro ko‘rdim, teng emish bo‘yi-yu sochi,
Tun-kun ekan, zohir o‘lur bo‘ldi chu Navro‘z!

Xalqimizning buyuk yo‘lboshchisi birinchi prezidentimiz Islom Karimov xalqqa va uning ma’naviyatiga qarshi qaratilgan xurujlarga dadil qarshi chiqib, Navro‘zni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash lozimligini qat’iy aytganidan keyingina bu ko‘hna bayramning ikkinchi umri boshlandi. Mana 30 yildirki ushbu bayramni biz keng miqyosda maktabgacha ta’lim tashkilotida, maktabda, mahallada, va barcha ta’lim maskanlarida ko‘tarinki ruhda o‘tkazib kelmoqdamiz. Albatta “Navro‘z” bayrami kuni bog‘cha yoshidagi bollalarimizga ko‘tarinki quvonch hadya etadigan turli xil o‘yinlar bilan birgalikda xalqimizning uzoq tarixga borib taqaladigan milliy kiyimlari, milliy taomlari, milliy kuy-qo‘shiqlari ham ularning taasurotlarini boyitishda, ularga o‘tmish sarchashmalaridan xabardor bo‘lishga zamin yaratib beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’nan yetuk, axloqan yuksak insonlar bo‘lib voyaga yetishi ko‘p jihatdan oilada va maktabgacha ta’lim tashkilotida ularga berilgan folklor asarlari ham ta’lim-tarbiya tizimida samarali foydalanish yaxshi natija beradi. Bu boarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida qabul qilingan «Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi»da ham o‘z aksini topgan. Konsepsiyaning beshinchi bobida aynan maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish, bu davrdan boshlab bolalarda ijobiy xulq motivlarini shakllantirish mobaynida ularda davlat ramzlariga hurmat hissini tarbiyalash, o‘g‘il bolalarda mardlik, shijoat, milliy g‘urur, qat’iyat, tadbirkorlik, oriyat, qiz bolalarda ibo, hayo, qanoat, mehnatsevarlik kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda «Bola aziz, odobi undan aziz» mavzuida ertak, matal, afsona, doston, maqollardan foydalanib, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglari va ota-onalar uchun alohida uslubiy qo‘llanmalar va uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalari sifatida belgilab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so‘zi. –Toshkent, 2019. 7 aprel. – № 68.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori. /Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079-son/.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017—2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. T: . 2016 yil 29 dekabr